



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rne



mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING O'ZBEK
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent – 2020

УЎК 821.512.153(092)

КБК 84

Ogahiy.

Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni [Matn]: – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020. – 265 b.

Ushbu to'plamda "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Muhammad Rizo Ogahiyning adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so'z yuritiladi. Ogahiy ijodiy merosini o'rganishning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov, Ibrohim Haqqulov, Sirojiddin Sayyid, Nurboy Jabborov, Nafas Shodmonov, Abdulla O'rozboyev, Gulnoz Xalliyeva, Iqboloy Adizova, Karomat Mullaxo'jayeva, Dilnavoz Yusupova, Akromjon Dehqonov, Qo'ldosh Pardayev, Tozagul Matyoqubova, Ozoda Tojiboyeva, Orzigul Hamroyeva.

O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasining 2020-yil 13-may 19-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

4. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. II jild. – T.: Adabiyot va san’at, 1972.
5. Ogahiy. Gulshani davlat. Qo’lyozma. O’zR FA ShI Qo’lyozmalar fondi, Inv.79.
6. Yunusov M. Komil Xorazmiy. – T.: Badiiy adabiyot, 1960.

NAVOIY VA OGAHİY IJODIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR TASVIRIDAGI MUSHTARAKLIKLAR

Ma’rifat RAJABOVA

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

BuxDU

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy va Muhammad Rizo Ogahiy lirikasida mifologik, obrazlarning badiiy talqinlari orqali yoritilgan mavzular tahlilga tortilgan. Har ikkala ijodkorning badiiy mahorati qiyosiy o’rganilgan.

Kalit so’zlar: an’ana, obraz, timsol, pari, ajdar, soch.

Shoir qalbi – dard, aniqrog’i, ilohiy dard maskani. Mana shunday ilohiy dard sohibi qalamidan esa o’lmas she’riyat tug’iladi va u shoir uchun haqiqiy qismatga aylanadi. Alisher Navoiy she’riyati ana shunday ilohiy dard va iste’dod samarasi o’laroq dunyoga kelgan bir bo’stondir. Ulug’ mutafakkir ijodiga adabiyotshunos olim I. Haqqulov: “Shoir she’riyati san’atkorlikning buyuk maktabigina emas, haqiqiy mezon hamdir”, – deya baho berganida tamomila haq edi. [Haqqulov, 2009:158]. Shu bois bo’lsa kerak, she’riyatning ulkan sarhadlarini zabt etgan shoir ijodi hanuzgacha ijodkorlar uchun sirli bir olam, intilish va ilhom manbai bo’lib kelmoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodining har bir qirrasida ulug’ shoir Alisher Navoiyning ijodiy ta’sirini sezish mumkin. Chunki adabiy jarayonni harakatlantiruvchi g’ildiraklardan biri bo’lgan adabiy ta’sir masalasi har bir ijodkor faoliyatida namoyon bo’luvchi hodisadir. Fikrimizni XIX asr o’zbek adabiyoti, Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Muhammad Rizo Ogahiy ijodi dalillashga xizmat qila oladi.

Ma’lumki, Ogahiy ijodida komil inson to’g’risidagi qarashlardan tortib, obraz, timsol, tasviriy vositalarni qo’llashgacha A. Navoiyga ergashish yaqqol sezilib turadi. Buni shoirning quyidagi iqrorlaridan ham bilsa bo’ladi:

*Ogahiykim, topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo’qtur Navoiyning navosidin sango. [Ogahiy, 1971:69]*

Demak, bir tomondan, Ogahiy mavjud an'analarga yuksak muhabbat bilan qaragan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mavjud poetik an'analarni o'ziga xos tarzda va muayyan darajada takomillashtirishga ham erishdi. Natijada Ogahiy ijodi mumtoz adabiyotimizda yorqin bir sahifani tashkil qildi.

Shunisi aniqki, xalq she'riyatida ham, mumtoz adabiyot namunalarida ham yorning go'zalligi, uning yurish-turishi, bo'yi, sochi bilan bog'liq tasvirlar poetik ko'chimplarga asoslanadi. Biroq mumtoz she'riyat namunalarida shunday tasvirlar borki, ularni xalq lirikasidagi totem va kulturelarning tarixi va mohiyatini tushunmay anglash mushkul. Jumladan, A.Navoiy ijodida ma'shuqaning sochi ta'rifida ilon yoki ajdaho tashbehining keltirilishi ko'p kuzatiladi. Ajdaho folklorga xos mifologik obrazlardan biri bo'lib, uning qo'llanishi qadim miflarga borib taqaladi. Xususan, xalq erataklarida ajdaho salbiy timsol sifatida qo'llanadi va ko'rinishi juda haybatli, vahimali, og'zidan olov purkovchi maxluq sifatida tasvirlanadi. U ko'pincha xazinalarni ko'riqlaydi. Ajdar xalq tasavvurida ilonning kattasi. Shuning uchun xalqda "Ilon qirq yil yashasa, ajdar bo'ladi" degan qarash ham mavjud.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida yomonlik ramzi sifatida kelgan mazkur obraz ham Alisher Navoiy ijodida turli maqsadlarda qo'llanganini kuzatishimiz mumkin:

*Sochbog'ing o'rg'anmudur siym taning davrig'a pech,
Yo'qsa husnung kunjig'a chirmashg'an ajdarmu ekin?* [Navoiy, 1987:434]

Baytda "Sochbog'ing siym taningda chirmashib to'lg'anayaptimi yoki husnungga chirmashgan ajdarmi?" ifodasi orqali tajohuli orifona (bilib bilmaslikka olish) san'ati vujudga keltirilgan. Ikkinchi tomondan esa sochbog', ya'ni ayollar soch taqinchoqlaridan biri bo'lgan jamalak ajdahoga o'xshatilib, tashbeh san'ati hosil qilingan. Shuningdek, baytda sinekdoxa vositasida qism orqali butun atab kelinmoqda. Ya'ni ma'shuqaning ajdarday to'lg'angan qalin va uzun sochlari misolida uning go'zalligiga ishora qilinmoqda. Ayni paytda yor go'zalligi (husni) uning xazinasini hamdir. Bu xazinaning qo'riqchisi esa ajdardir. Demak, bunda shoir ajdar bilan bog'liq xalq tasavvurlariga ijobiy bo'yoq berib, undan ma'shuqaning go'zalligini tasvirlash uchun foydalangan.

E'tiborli tomoni shundaki, Alisher Navoiy baytiga hamohang bunday tasvirni Ogahiy lirikasida ham kuzatish mumkin:

Gisularmi ul yuz ustida makon etkan,

Ganj uzra va yo ikki ajdarmu ekan oyo. [Ogahiy,1971:63].

Ushbu baytning ikkinchi misrasida ajdar xuddi folklor namunalaridagi kabi xazina qo'riqchisi sifatida talqin qilinmoqda. Ko'rinyaptiki, har ikkala ijodkor yorning yuzini xazinaga, sochini esa ajdar o'xshatgan. Navoiy va Ogahiydan iqtibos keltirilgan g'azal baytlari boshdan-oyoq tajohuli orifona san'ati asosida yaratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa ma'shuqa go'zalligini mubolag'ali tasvirlarda berishdan iborat.

Mumtoz adabiyotda ajdar obrazi bilan bog'liq tasvirlarda, asosan, lirik qahramonning hijron dardlarini, sog'inch iztiroblarini badiiy ifodalash ko'zda tutilgani ayon. Shu bilan birga, husnda tengsiz bo'lgan ma'shuqaning sochi jafo va zulm sababkori sifatida ham talqin qilinadi. Jumhdalan, hazrat Navoiyda shunday bayt bor:

*Zulfi qonlig' paykarimni chekti pechu xam bila,
Ul sifatkim, tortqay ajdar biravni dam bila* [Navoiy, 1987:376].

Aksariyat xalqlar folklorida ajdar xazinaga qo'riqbonligidan tashqari, qurbonlik talab qiluvchi maxluq sifatida ham tasvirlanishi kuzatiladi. Keltirilgan baytda aynan ajdarning mana shu xususiyatiga urg'u berish orqali ma'shuqa go'zalligi vasf qilingan. Ma'shuqaning sochi oddiy soch emas, balki qonli soch. U ma'shuqaning paykari (jussasi)ga o'ralib, qaddini bukkan. Bunday tasvir orqali go'yo ajdarning birovni nafasi bilan damiga tortishiga o'xshatilgan.

*Zulfiga tushti ko'zim boqmoq tilab ruxsoriga,
Vah, netoykim, ganj istab ajdahoga uchradim* [Ogahiy,1971:360].

Ogahiy lirikasidan keltirilgan yuqoridagi baytda ham ma'shuqa ruxsorini (xazinani) qo'riqlab turgan ajdar xaqida fikr boradi. Baytda lirik qahramon ma'shuqa ruxsoriga boqmoqni niyat qilar ekan, uning nigohi ganj (xazinaga) emas, ajdahoga tushadi. Natijada oshiq ma'shuqa ruxsorini ko'ra olmaydi. Yor ruxsori, ya'ni xazinaga erishish uchun esa ajdahoga mone'lik qiladi.

Pari obrazi Alisher Navoiy she'riyatida ko'p qo'llangan unsurlardan yana biridir. Genetik jihatdan ibtidoiy davrga xos mifologik dunyoqarash mahsuli bo'lgan pari obrazi, odatda, antropomorf – insoniy qiyofada gavdalantiriladi. Go'zallik parilarga xos yetakchi belgi hisoblanadi. Ular nihoyatda suluv, juda go'zal qizlar yoki barkamol yigitlar qiyofasida tasvirlanadi. [Qayumov, 1999:10]. Ulug' shoir she'riyatida ham, asosan, pari obrazining mana shu jihatlari inobatga

olingan. Pari goh ma'shuqa bilan qiyoslanadi, goh ma'shuqa o'zining latofati bilan paridan ustun keladi, ba'zan u pariga o'xshatiladi.

*Yuzung Haq nur, jisming ruhi pok, ey ruhdek g'oyib,
Seningdek bir malak siymo parivash yo'qtur insonda* [Navoiy, 1987:479].

Parilarning insonlar ko'ziga ko'rinmaslik xususiyati xalqning diniy va mifologik qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Hazrat Navoiy yuqoridagi baytda ana shu qarashlarga asoslanib, ruh va pariga xos bo'lgan xususiyatni malaksiymo parivash (ma'shuqaga)ga ko'chiradi.

Ogahiy lirikasida ham parining ko'rinmaslik xususiyatini aks ettiruvchi baytlar mavjud. Navoiydan farqli o'laroq, shoir ma'shuqa go'zalligini ko'rsatish uchun uni farishta, hur, g'ilmon kabi ruhlar olami vakillari bilan birgalikda keltiradi. Bundan ko'zlangan maqsad esa ma'shuqaning go'zalligini bo'rttirib ko'rsatishga qaratilgan.

*Yo farishta, yo g'ilmon, yo paridur ul, yo'qsa,
Qaysi dilbar etmishdur elni muncha zor uynab* [Ogahiy, 1971:109].

Xalqda pariga yo'liqqan insonning telba (devona) bo'lishi haqidagi qarashlar mavjud. Mumtoz adabiyotda esa telbalik – devonalik bu ishqning natijasi deb qaralgan.

*Ne ayb, Navoiy kibi devonalig' etsa,
Har odamekim, bo'lsa aning yori parizod* [Navoiy, 1987:115].

Shoirning fikricha, pari har kimning yori bo'la olmaydi. Navoiy "Har odamekim" deganda ishq sirrini anglagan, qalbi toza insonlarni nazarda tutadi. Shuning uchun oshiq Navoiy kabi devonalig' qilsa ayb qilma, chunki uning yori parizoddir, deydi.

Ogahiy lirikasida shunga yaqin baytlar mavjud. Shoir parining ishqiy yo'lida "jonbozlar" ko'p, lekin ularning "pokboz – sadoqatli, chin, halol" emasligiga e'tibor qaratadi.

*Ul pari ishqiy aro jonbozlar ko'pdur, vale,
Pokboz ermas biri bu oshiqi miskin kibi* [Ogahiy, 1972:57].

Xulosa qilib aytish mumkinki, mifologik, diniy-tarixiy obrazlarning qo'llanishi har ikkala ijodkorda ma'shuqa ta'rifini qiyoslash, bo'rttirish orqali uni vasf qilish bo'lsa, oshiqning ishq bobidagi jasorati, sabr qanoati, shijoatini badiiy aks ettirish uchun xizmat qildirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул-бидоя. – Т.: Фан, 1987. – 689 б.
2. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. II жилд. Наводир ун-ниҳоя. – Т.: Фан, 1987. – 622 б.
3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. VI жилд. Фавойид ул-кибар. – Т.: Фан, 1990. – 555 б.
4. Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. I жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – 390 б.
5. Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик. II жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 390 б.
6. Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи: Филол. фан. номз....дисс. автореф. – Т., 1999.
7. Ҳаққулов И. "Рух раҳмоний эрур..." Ижод иқлими. – Т.: Фан, 2009. – 387 б.

OGAHIY RUBOIYLARIDA OLAM VA ODAM TALQINI

Abdumurod TILAVOV

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

ToshDO'TAU

Annotatsiya: Maqolada olim, orif, mutafakkir shoir Ogahiyning bir ruboiysi tahlil etiladi. Shoirning odam va olamga munosabati, tafakkur salohiyati, ruboiy yozilishiga sabab bo'lgan omillar borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inson, qalb, g'aflat, nodon, iqtibos san'ati

Chinakam ijodkor unga ato etilgan iste'dod ne'matini qadrlamog'i, qadriga yetmog'i, uni risoladagidek tasarruf etmog'i lozim. Buning uchun esa, shunchaki emas, haq va haqiqatni, olam va odam haqidagi xulosalarini tinglovchi – o'quvchi qalbiga singadigan tarzda, ta'sirli qilib yozish sharti bor. Tom ma'nodagi adabiyotning pirovard maqsadlaridan muhimi ham shudir, balki?

ABDUSAYIMOVA Dilfuza. Ogahiy mustazodida ishq talqini.....	125
OTAXANOVA Mahmuda. Ogahiy lirikasi badiiyati	130
QOZAQOV Sadriddin. Ogahiy ijodida Iso Masih timsoli.....	134
XUDAYBERGANOV Yodgorbek. Ogahiy g‘azallarida talmeh san’ati.....	138
IBRAGIMOVA Umida. Ogahiy va Hofiz Xorazmiy ijodida tazod san’ati	141
RUZMETOV Shahzodbek. Ogahiyning hamd g‘azallarida vazn va qofiya munosabati	145

OGAHIIY NASRI, TARIXIY VA TARJIMA ASARLARI

JABBOROV Nurboy. “Firdavsu-l-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi	149
SHODMONOV Nafas. Badiiy-tarixiy nasr matni yaxlitligini ta’minlashda she’riy asarlarning o‘rni (“Shohidu-l-iqbol” asari misolida).....	166
O‘ROZBOYEV Abdulla. Xazon bilmas davlat bog‘lari (“Riyozi-d-davla”ning ilk to‘la nashri munosabati bilan).....	174
XALLIYEVA Gulnoz, ADAMBAYEVA Nargiza. Ogahiy ijodining Amerikada o‘rganilishi.....	181
ZIYAYEVA Dono. Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari	185
HAMROYEVA Orzigul. “Debocha”dagi saj‘ning poetik vazifasi	188
HAYDAROV Toir. “Qobusnoma”ni o‘zlashtirishga oid besh jihat.....	193
SA‘DULLAYEV Bahrom. “Firdavsu-l-iqbol” asarida chap qirg‘oq Kat-qal’a tarixiga doir ma’lumotlar haqida.....	197
MANSUROV Sobir. Sa’diyning “Guliston” asari tarjimasining G‘afur G‘ulom nusxasi haqida	201
JUMAYEVA Dilnoza. “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tarjimasiga doir ayrim mulohazalar	205
RAZZAQOV Jahongir. Ogahiy asarlarida Xiva xonligining Angliya bilan munosabatlari	209
RO‘ZIYEV Elbek. “Firdavsu-l-iqbol”dagi nazmiy parchalar va ularning badiiyatiga doir ayrim mulohazalar	213

TA’LIM TIZIMIDA OGAHIIY ASARLARINI O‘QITISH MUAMMOLARI

ABDURAHMONOVA Barno. Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishning umumta’lim maktablari adabiyot dasturlaridagi ifodasi	218
AVAZOVA Gulrux. Ogahiy ijodini o‘rganishda yangicha yondashuvlar.....	222

ISROILOVA Sohiba. Ogahiy asarlari matni ustida ishlash.....	227
NAJMITDINOVA Naima. Ta'lim tizimida Ogahiy asarlarini o'qitish muammolari.....	230

OGAHY IJODINING TILSHUNOSLIKDAGI ILMIY TALQINLARI

TILLAYEVA Muyassar. Ogahiy yangi sodda yasalma va qo'shma so'zlar ijodkori sifatida.....	234
NORBAYEVA Shukurjon. Ogahiy tarixiy asarlari leksikasi va Xorazm shevalari lug'at fondi.....	238
MAHMUDOV Raufjon. Ogahiy tarixiy asarlarida qo'llangan ayrim avestoviy antroponimlarning etimologiyasi.....	243
RADJAPOVA Umida. "Lahjatu-l-lug'ot" - Ogahiy asarlari leksikasi tadqiqida muhim manba.....	248
NURULLAYEVA Sarvinoz. Ogahiy she'riyatida mifologik obrazlar metaforizatsiyasi xususida	253
KOMILOVA Dilrabo. Ogahiy asarlarida antroponimlar	257

Ilmiy-ommabop nashr

MUHAMMAD RIZO OGACHIYNING O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

Muharrir:

Tilavov Abdumurod

Dizayner:

Humoyun Is'hoqov

Musahhiha:

Abdujalilova Diyora

“Navoiy universiteti” nashriyot matbaa uyi

Terishga 2020-yil 15-mayda berildi.

Bichimi 84x108. 1/16. Cambria garniturasida tayyorlandi.

16 shartli b.t. 15,5 hisob nashr b.t.

(elektron nashr)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy

